



INTERNET TARMOG'IDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Durdubayeva Nargiza Muratbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti, 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6337654>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Internet, jinoyat,
kiberjinoyat, jinoyat
kodeksi, javobgarlik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etishning mohiyati yoritib beriladi, bu kabi jinoyatlar sodir etilganda qo'llaniladigan choralar, javobgarlik masalalari, qonunda belgilangan moddalar ko'rsatib beriladi.

Asrimizning global muammolari qatoriga yangidan-yangi turlari bilan tilga olinayotgan kiberjinoyatchilik kirib kelganiga ham ancha bo'ldi. Uning bizga ma'lum bo'lgan virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag'larni o'zlashtirish talon-toroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo'hton, ma'naviy buzuq ma'lumotlarni tarqatish bilan bashariyat hayotiga katta xavf solayotganidan ko'z yuma olmaymiz.

«Kiberjinoyatchilik» tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik,

ma'lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o'g'irlash (fishing va farming) va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi.

Shu o'rinda kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko'lami ham oshib borayotganini ta'kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiberhujum) - komp'yuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan yoki potentsial xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, moddiy ob'ektlarga katta zarar etkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarining boshlanishi yoki maqsadi bo'lgan siyosiy sababdir. Zamonaviy terrorchilar uchun kibermakondan foydalanishning jozibadorligi



kiberhujumni amalga oshirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmasligi bilan bog'liq.

Internetda amalga oshiriladigan jinoyatlarga jazo muqarrar.

Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar va ularga nisbatan javobgarlik ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 130-modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish. Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

139-modda. Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilish bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

158-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan yoki

Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilish uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

188¹-modda. Mulkiy manfaat berish bo'yicha zimmaga majburiyat olish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari olingan majburiyatni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek bunday faoliyatga rahbarlik qilish va shunday faoliyat ko'rsatilishini ta'minlash ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

244⁶-modda. Shaxsning qadr-qimmatini kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Kundan-kunga takomillashib ketayotgan kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlashda quyidagi asosiy talablarni bajarish orqali ulardan



himoyalani, ya'ni kiberxavfsizlikni ta'minlashimiz mumkin:

xodimlarga axborot xavfsizligi asoslarini o'rgatish;

foydalanayotgan dasturiy mahsulotlarning zaifliklarini doimiy sinovdan o'tkazish;

ishonchli antivirus dasturidan foydalanish;

litsenziyalangan rasmiy dasturlardan foydalanish;

axborot tizimlarini himoyalashda ko'p faktorli autentifikatsiyadan foydalanish;

parollardan foydalanishda kuchli parolni saqlash siyosatiga rioya qilish;

muntazam ravishda komp'yuter qattiq disklaridagi ma'lumotlarni shifrlash.

Shu o'rinda, mamlakatimizda kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashni olib boruvchi vakolatli davlat idoralariga ham muayyan vazifalar yuklanishini alohida ta'kidlash lozim.

Xususan, ular kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida O'zbekiston Respublikasi va uning xalqini axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari orqali amalga oshirilayotgan yoki bunga imkon berayotgan shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini va ularning manfaatlari tashqi hamda ichki kibertahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va barham berish kabi vazifalarni amalga oshirishi darkor.

Shuningdek, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarni tergov qilish va ularni aniqlash, bartaraf etish hamda oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab

chiqishda ishtirok etish, kiberterrorizm, kiberekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kiberxavfsizligiga tahdid soluvchi kiberhatarlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, kiberjinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o'tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi kiberjinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajarishlari lozim.

Mamlakatimiz Jinoyat kodeksida axborot texnologiyalari sohasiga oid yetti moddasida va boshqa qonun hujjatlarida axborot tizimlari, internet tarmog'idagi axborotdan foydalanuvchilar, provayderlar, ommaviy axborot vositalarining va boshqalarning javobgarligi to'g'risidagi ayrim qoidalarning yetishmasligidir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o'zgartishlar (o'zgartirish va qo'shimchalar)ni ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritishning real zarurati vujudga keldi. Jinoyat kodeksiga o'zganing mulkini o'g'irlash (o'g'irlik, firibgarlik, tovlamachilik), aloqa tarmoqlari, shu jumladan Internet bilan bog'liq jinoyatlarni tartibga solish bo'yicha axborot tizimi va ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, plastik va kredit kartalar orqali pul mablag'larini yechib olish bilan bog'liq ma'lumotlarni qo'shib, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Zamonaviy voqelikni hisobga olgan holda "kiberjinoyat"ning kompleks tushunchasini belgilash uchun ushbu jinoyatlarning asosiy elementlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarni tergov qilish metodologiyasini ishlab chiqish zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salayev N.S., Ro`ziyev R.N Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy va xalqaro standartlar. Monografiya ., – T.: TDYU, 2018, 139-b.
2. Карпова Д.Н. Киберпреступность: глобальная проблема и её решение. //Власть. №8. 2014. С. 46-50
3. Anorboyev A.U Kiberjinoyatchilik, unga qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta`minlash istiqbollari. Monografiya – T.: Milliy gvardiya instituti, 2020. – 324 b.
4. Нестерович С.А. Проблемы расследования преступлений, которые стоят перед сотрудниками следственных органов. // Вестник науки и образования. №8. 2018. С. 46-49.
5. Берова Д.М. Расследование киберпреступлений // Пробелы в российском законодательстве. №2. 2018. С. 173-175
6. www.lex.uz
7. www.iiv.uz